

ИЖТИМОЙИ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабинова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Mo‘minov Zokirjon

TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARIDA IJTIMOY MOBILIKNI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....5

2. Qosimov Vohid

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA “KOMPLAENS-NAZORAT” TIZIMI ROLINI OSHIRISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY, IJTIMOY VA HUQUQIY ASOSLARI.....12

3. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA MILLIY-MENTAL XUSUSIYATLARNI E‘TIBORGA OLISHNING AYRIM JIHATLARI.....19

4. Kulbekova Nasiba

TA‘LIM TRANSFORMATSIYASI: INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, YANGI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR HAMDA IQTISODIYOT SOHALARINING STRATEGIK RIVOJLANISH VAZIFALARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI.....26

5. Abduvaliev Fatxulla

YUQORI SINIF O‘QUVCHILARI O‘RTASIDA TA‘LIM MIGRATSIYASI TOMON IJTIMOY HARAKATLANISH SABABLARI TAHLILI.....33

6. Akramov Xusan

RATSIONAL TAFAKKUR: ISLOMIY AN‘ANA VA SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR KONTEKSTIDA TAHLIL.....46

7. Муллағалиева Фануза, Румянцева Екатерина

ОПЫТ ЖЕНЩИН В НАУКЕ УЗБЕКИСТАНА.....52

8. Mingbayeva Nozimaxon

JAMOATCHILIK FIKRINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI IMKONIYATLARI.....59

9. Бозорова Ўлмасхон

БОШҚАРУВДА ЁШ РАЎБАРЛАР ИЖТИМОЙ КАПИТАЛИНИНГ АҲАМИЯТИ.....66

10. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI KO‘NIKMALARINI BAHOLASHDA DREYFUS MODELIDAN FOYDALANISH.....73

11. Tangirova Mavjuda

AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING ASOSIY OQIMLARI VA ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI.....80

12. Mirsoliyeva Nargiza

YAPON CHOY MAROSIMINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI.....88

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Mannanova Nilufar,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi,

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: nilufar2627@mail.ru

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI KO'NIKMALARINI BAHOLASHDA DREYFUS MODELIDAN FOYDALANISH



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17048622>

ANNOTATSIYA

Davlat fuqarolik xizmati sohasini takomillashtirish ijtimoiy taraqqiyotga erishishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakatning taraqqiyotida kadrlar salohiyati va professionalligi asosiy rol o'ynaganligi sababli, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun ularning ko'nikmalarini rivojlantirish zarur hisoblanadi. Ushbu maqolada davlat fuqarolik xizmatchilarining mehnat faoliyatini optimallashtirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar tahlil etilgan. Maqolada ko'nikma tushunchasining mazmun-mohiyati, turlari, zamonaviy adabiyotlardagi talqini tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada Dreyfusning "Ko'nikmalarni shakllantirish jarayonidagi mental faoliyatning besh bosqichli modeli"ni davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatiga tadbiq etish xususiyatlari o'rganilgan. Dreyfus modelining mazmuni, afzalligi ochib berilgan holda, davlat fuqarolik xizmatchilarining "qattiq" va "yumshoq" ko'nikmalarini rivojlantirishda Dreyfus modelidan foydalanishning zaruriyati asoslantirilgan, o'ziga xos xususiyatlari, amalga oshirishning metodologik jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: davlat fuqarolik xizmatchisi, Dreyfus modeli, ko'nikma, "qattiq" ko'nikmalar, "yumshoq" ko'nikmalar, VIA-Survey testi.

Маннанова Нилуфар,

Академия государственной политики и управления

при Президенте Республики Узбекистан,

Доктор философии по социологии (PhD)

e-mail: nilufar2627@mail.ru

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МОДЕЛИ ДРЕЙФУСА ПРИ ОЦЕНКЕ НАВЫКОВ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ГРАЖДАНСКИХ СЛУЖАЩИХ

АННОТАЦИЯ

Совершенствование сферы государственной службы приобретает важное научное и практическое значение для достижения социального развития. Поскольку потенциал и профессионализм кадров играют ключевую роль в развитии любой страны, необходимо развивать их навыки для подготовки конкурентоспособных специалистов. В статье анализируются навыки, необходимые для оптимизации работы государственных служащих.

Рассматриваются содержание, виды и трактовка понятия «навык» в современной литературе. Также в статье изучаются особенности применения «Пятиэтапной модели умственной деятельности в процессе формирования навыков» Дрейфуса к деятельности государственных служащих. Раскрывая содержание и преимущества модели Дрейфуса, обосновывается необходимость использования этой модели при развитии «жестких» и «мягких» навыков государственных служащих, выделяются её специфические особенности и методические аспекты внедрения.

Ключевые слова: государственный гражданский служащий, модель Дрейфуса, навыки, «жесткие» навыки, «мягкие» навыки, тест VIA-Survey.

Mannanova Nilufar,

The Academy of Public Policy and Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in Sociology (PhD)
e-mail: nilufar2627@mail.ru

USING THE DREYFUS MODEL IN ASSESSING THE SKILLS OF CIVIL SERVANTS

ABSTRACT

Improving the civil service sector is acquiring important scientific and practical significance for achieving social development. Since the potential and professionalism of personnel play a key role in the development of any country, it is necessary to develop their skills to prepare competitive specialists. The article analyzes the skills necessary to optimize the work of civil servants. The content, types and interpretation of the concept of "skill" in modern literature are considered. The article also studies the features of applying Dreyfus's "Five-Stage Model of Mental Activity in the Process of Skill Formation" to the activities of civil servants. By revealing the content and advantages of the Dreyfus model, the necessity of using this model in developing the "hard" and "soft" skills of civil servants is substantiated, its specific features and methodological aspects of implementation are highlighted.

Key words: state civil servant, Dreyfus model, skills, "hard" skills, "soft" skills, VIA-Survey test.

KIRISH

Har bir mamlakatda davlat xizmati sohasidagi islohotlar, kadrlar salohiyatining yuksalishi tashqi va ichki siyosatning muvaffaqiyatli amalga oshishiga, ijtimoiy farovonlikka xizmat qiladi. Bunda davlat fuqarolik xizmatchilarining insonparvarligi, xolisligi va kasbiy mahorati muhim o'rin tutadi. Mehnat faoliyati davomida davlat fuqarolik xizmatchilaridan ijobiy ko'nikmalarini rivojlantirishlarini, yangidan yangi bilimlarni o'zlashtirishlarini, shaxsiy rivojlanishlarini talab etadi. Davlat xizmatchilari ega bo'lgan ko'nikmalari ular mehnat faoliyatining mazmuni, sifati, natija va ko'rsatkichlarida aks etadi. Boshqaruv institutlarining yuqori mehnat samarasiga erishishi uchun davlat xizmatchilarining ko'nikmalarini ilmiy asosda tashxislash, ushbu masalaga tahliliy yondoshish, mohiyatini metodologik o'rganish lozim bo'ladi.

Shaxslar, jumladan, davlat xizmatchilarida zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun, dastlab, ko'nikma tushunchasining mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratish muhimdir. Ma'lumki, "ko'nikma deb, faoliyatni amalga oshirishning inson o'zlashtirib olgan usuliga aytiladi. Insonning biror faoliyat turi bo'yicha egallangan mahorat va amaliy faoliyatni bajarishining eng oddiy darajasi ko'nikma deb ataladi" [1]. Ko'nikmalar ba'zan shaxsning egallangan bilim va hayotiy tajriba asosida tez, aniq va ongli ravishda bajariladigan amaliy harakatlarga tayyorgarligi deb ham ta'riflanadi [2]. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida "ko'nikma – insonning egallagan tajribalari asosida muayyan harakatlarni ma'lum darajada fikrlab amalga oshirish faoliyatidir. Ko'nikmalar amaliy faoliyatga tegishli bo'lib, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir. Ko'nikma, faoliyatning maqsadi va sharoitlariga mutanosib ravishda, harakatni

muvaaffaqiyatli bajarish usullaridir. U hamisha bilimlarga asoslanadi, mahorat (malaka)ning negizi hisoblanadi. Ko'nikma mazmunan amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy ko'nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy ko'nikmalar bilim olishga, uni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ko'nikmalarni bilim bilan adashtirmaslik lozim, chunki bilimlar voqeilik to'g'ri aks ettirilgan mulohazalarda ifodalanadi. Ko'nikmalar esa, ko'proq aqliy va jismoniy harakatlarda mujassamlashadi" [3], deya qayd etilgan.

Barcha jamiyatlarda ko'nikmalarning ijobiy xarakterda, to'laqonli darajada rivojlantirilmagan jamiyat a'zolari juda ko'p bo'ladi. Turli xil ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar, mafkuraviy-e'tiqodiy masalalar, ma'rifiy, iqtisodiy turfa holatlar ko'nikmalarning to'g'ri shakllantirilishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Biroq, bu hammani saralagan holda, diskriminatsiyaga yo'l qo'yish, mehnat faoliyatidan chetlatish, davlat xizmatiga qabul qilmaslikka olib kelmasligi kerak. Aksincha, bu holatda har bir insonga individual yondoshish, shaxsning qobiliyati, ega bo'lgan «qattiq» va «yumshoq» ko'nikmalarini to'g'ri tashxislash va shu orqali meritokratik yondoshgan holda mehnat faoliyatida o'z o'rniga to'g'ri qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

METODOLOGIYA

Davrimizga kelib, zamonaviy manba va ilmiy adabiyotlarda ko'nikmalar tushunchasi mazmun-mohiyatiga ko'ra umumlashtirilib "qattiq" ("hard") va "yumshoq" ("soft") ko'nikmalarga ajratib o'rganilmoqda. "Yumshoq" ko'nikmalar – bu kommunikativ va boshqaruv qobiliyatidir. Bunga ishontira olish, yetakchilik qilish, boshqarish, taqdimot qilish, har bir insonga o'ziga xos yondoshuvni topish, ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati, notiqlik san'ati – umuman olganda, muayyan kasb egalarigagina taalluqli bo'lib qolmagan, balki umuminsoniy bo'lgan fazilat va ko'nikmalar kiradi» [4].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlar ilmiy hamjamiyatida muntazam ravishda "yumshoq ko'nikmalar" masalasi bo'yicha tadqiqotlar va monografiyalar nashr etildi. Ko'pgina tadqiqotlar fanlararo xususiyatga ega (iqtisod, menejment, ta'lim, psixologiya, sotsiologiya, falsafa) bo'lsa, ba'zi tadqiqotlar alohida kasblar va ma'lum bir sohadagi kasbiy ko'nikmalarga bag'ishlangan [5].


«Qattiq» va «yumshoq» ko'nikmalar tushunchalarining tahlili, olimlar tadqiqotlari natijalari maqom va intellektual salohiyat jihatidan elitar qatlam bo'lgan davlat xizmatchilarida ushbu zaruriy ko'nikmalarning bo'lishini soha faoliyatining takomillashuvining muhim mezonini sifatida asoslaydi.

ASOSIY QISM

Davlat fuqarolik xizmatchilarida "qattiq" va "yumshoq" ko'nikmalarga tayangan holda faoliyat samaradorligini oshirishda Dreyfusning "Ko'nikmalarni shakllantirish jarayonidagi mental faoliyatning besh bosqichli modeli" (A Five-Stage Model of the Mental Activities Involved in Directed Skill Acquisition)dan foydalanish muvaffaqiyatli natijani ta'minlashi mumkin.

Dreyfusning "Ko'nikmalarni shakllantirish jarayonidagi mental faoliyatning besh bosqichli modeli"da har bir ko'nikmaning o'z rivojlanish darajalari va mezonlari mavjud. Qanchalik ko'p amaliyot qilinsa, ko'nikmalar shunchalik yaxshi rivojlanadi. Eng muhimi - qayta aloqa olish va o'tgan tajribani tahlil qilish zarur bo'ladi, aks holda, rivojlanish sekinlashadi.

Dreyfusning "Ko'nikmalarni shakllantirish jarayonidagi mental faoliyatning besh bosqichli modeli"da [6] shaxsning besh xil bosqichdan o'tishini ko'rsatadi (1-rasm):



1-rasm. Dreyfusning “Ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonidagi mental faoliyatning besh bosqichli modeli” [7]

- yangi boshlovchi;
- davom ettiruvchi – vaziyatga ozroq javob beradi, ishning barcha jihatlarini teng ahamiyat bilan alohida ko‘rib chiqadi;
- malakali (kompetent) – ortiqcha ma‘lumot bilan ishlay oladi, o‘ylab ish ko‘radi va rejalashtiradi;
- mutaxassis – vaziyatga yaxlit qaraydi, ustuvorliklarni belgilaydi, me‘yoriy holatlardan chetlanishlarni anglaydi;
- ekspert – qoidalardan ustun turadi, yetakchi tamoyillar va qoidalarni qabul qiladi, vaziyatni intuisiya bilan tushunadi, muammolarni hal qilish uchun ko‘proq yondashuvlarni qo‘llaydi.

Yangi boshlovchiga – bu bosqichda rahbar-instruktor tomonidan zarur ko‘nikmasiz o‘ziga tanish bo‘lgan vazifalar beriladi. Ushbu vazifani bajarish uchun yangi boshlovchiga o‘zi uchun yangi bo‘lgan elementlarga asoslangan harakatlarni aniqlashi uchun qoidalar, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatiladi [8]. Zaruriy ko‘nikmalarni egallashi uchun yangi boshlovchi o‘zini o‘zi kuzatib borishi hamda ko‘rsatmalar asosida o‘z xatti-harakatlarini lavozim vazifalari va jamoaviy muhitga muvofiqlashtirib borishi uchun nazorat qilib turilishi lozim bo‘ladi.

Davom ettiruvchi - bu bosqichda yangi tajriba orttirayotgan shaxs bo‘lib, amaliy vaziyatlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish jarayonida tegishli holatni anglay boshlagan sari, u o‘qituvchi yoki o‘rgatuvchi yordamida, mazkur vaziyat yoki predmet sohasining mazmun jihatidan muhim bo‘lgan qo‘shimcha jihatlarini namoyon etuvchi aniq misollar, elementlar, nozik nuqtalarni ilg‘ash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yetarli miqdordagi bunday misollar bilan tanishish natijasida mutaxassis ushbu yangi jihatlarini mustaqil ravishda identifikatsiyalash ko‘nikmasiga erishadi [8]. Natijada, xodim o‘rgatish jarayonida tajriba asosida anglanadigan ushbu situativ jihatlar bilan bir qatorda, aniqlana olinadigan, holatga bog‘liq bo‘lmagan ob‘yektiv xususiyatlarga ham e‘tibor qarata oladi va bu holatlarda o‘z tajribalarini qo‘llash ko‘nikmasi ham shakllangan bo‘ladi. Boshlang‘ich darajadagi shaxsning vazifasi – qoidalarga rioya qilish va tajriba orttirishdir.

Ilk tajribali ijrochi muayyan amaliyot orqali vaziyatning ayrim muhim jihatlarini farqlay boshlaydi.

Malakali xodim – bu bosqichda xodimning tajribasi ortishi bilan anglashi va amalga oshirilishi lozim bo'lgan topshiriqlar soni ko'payib, nazorat qilish qiyin bo'lib qoladi. Bu bosqichda, muayyan vaziyatda qaysi jihatlar haqiqatdan muhim ekanligiga doir intuitiv hisning yo'qligi, vazifalarning muhimlik ketma-ketligini aniqlolmaslik tufayli faoliyat yuritish asabiylashtiruvchi, jisman va ruhan charchatuvchi jarayonga aylanadi. Buning natijasida, ba'zi vaqtlarda xodim bunday mahoratga kimdir mukammal ega bo'lishi mumkinligiga shubha bilan qarashi ham mumkin. Ushbu noaniqlik sharoitida to'g'ri yo'l topish jarayoni oddiy charchoq emas, balki qo'rquv uyg'otuvchi holatga aylanadi. Bunday ortiqcha yuklamani yengish va malakali darajaga erishish uchun shaxs o'rganish yoki tajriba orqali muayyan reja ishlab chiqish, muayyan nuqtai nazarni tanlashga o'rganadi. Bu ko'nikma esa vaziyat yoki sohada qaysi elementlar muhim deb qaralishi, qaysilari esa e'tibordan chetda qoldirilishi kerakligini belgilaydi. Xodim o'rni kelganda sovuqqonlik, o'zini bosib mulohaza bilan ish tutishni o'rgangani sari, tushunish va qaror qabul qilish jarayoni yengillashib boradi.

Malakali darajada inson qiyinchiliklardan chiqish uchun reja tuzish yoki muayyan nuqtai nazar tanlashni o'rganadi. Shu yo'l bilan u e'tiborini faqat eng muhim jihatlariga qaratgan holda, qaror qabul qilishni yengillashtiradi.

Mazkur bosqichda natija xodimning tanlagan nuqtai nazari, qaroridan kelib chiqadi, shu bois xodim o'z tanlovi uchun shaxsan mas'ullik his qiladi. Ayrim hollarda bunday tanlov noaniqlik va muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Biroq, ba'zan natija ijobiy chiqadi va bunday paytda malakali xodim o'ziga xos ruhiy ko'tarinkilikni his qiladi, bu albatta, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, xizmat vazifasiga nisbatan ijobiy kayfiyatni shakllantiradi.

Professional mutaxassis – bu bosqichda mehnat faoliyati davomida yuzaga kelgan ijobiy va salbiy hissiy tajribalar, muvaffaqiyatli nuqtalarni e'tiborga oladi, samarasiz kechgan natijalarni cheklaydi, natijada qoidalar va prinsiplar bilan ifodalangan nazariy tasavvurlar asta-sekin situativ farqlash qobiliyati, refleks holat bilan almashadi. Bunday mahorat faqatgina nazariya tajriba bilan uyg'unlashgan holda o'zlashtirilganda rivojlanadi.

Tajriba kengaygan sari turli vaziyatlarni farqlay olish qobiliyati oshadi va qaror qabul qilish jarayoni tezlashadi.

Ekspert mutaxassis – bu bosqichda xodim mehnat faoliyati davomida nimaga erishish kerakliginagina emas, balki o'zining ulkan situativ farqlash mahorati tufayli, ushbu maqsadga qanday yo'l bilan erishish mumkinligini ham ko'ra oladi. Demak, vaziyatlarni yanada nozik va aniq farqlash qobiliyati – ekspertni malaka darajasidagi ijrochidan ajratib turuvchi asosiy belgi hisoblanadi.

Ekspert turli vaziyatlarda yetarli tajriba orttirgan holda, ularning barchasini bir xil nuqtai nazardan ko'rgan bo'lsa-da, taktik qarorlar turlicha bo'lishini anglaydi.

Ekspert vaziyatda nima qilish kerakligini nafaqat ko'radi, balki qanday qilish kerakligini ham darhol sezadi. Bu – uning ulkan tajribasi va turli vaziyatlarni chuqur ajrata olish qobiliyati samarasidir.

Ekspertda bir xil reja yoki nuqtai nazarga ega bo'lgan vaziyatlar ichida, turli taktik qaror talab qiladigan holatlarni farqlash qobiliyati mavjud.

Mahorat rivojlanishi yangi boshlovchi xodimning qoidalariga qat'iy suyangan holatidan boshlanib, tajriba va emotsional ishtirok orqali intuitiv va avtomatik qaror qabul qila oladigan ekspertlik darajasiga yetishi bilan yakunlanadi.

Eng muhimi – faqat nazariy bilim emas, balki chuqur intuitiv hissiyot, mas'uliyatni sezish va turli vaziyatlarda olingan tajribani ongli ravishda amaliyotga tadbiq etish jarayonidir. Ana shu omillar insonni qoidalariga bog'liq ijrochidan haqiqiy intuitiv ekspertga aylantiradi.

2004-yilda psixologlar Martin Seligman va Kristofer Peterson patologiyalarni tasniflashga o'xshash tarzda insonlarda mavjud bo'lgan 24 ta ijobiy fazilatlar ro'yxatini tuzdilar [9]. Tadqiqotchilar ularni quyidagi oltita guruhga ajratdilar:

a) donishmandlik va bilim fazilatlar: ijodkorlik, qiziquvchanlik, ochiqlik, o'qishga muhabbat, istiqbolni ko'ra olish;

b) jasorat fazilatlar: mardlik, mehnatkashlik, yaxlitlik, hayotiylik;

- c) insonparvarlik fazilatlar: muhabbat, mehribonlik, ijtimoiy intellekt;
- d) adolat fazilatlar: mas'uliyat, xolislik, liderlik;
- e) kamtarlik fazilatlar: rahm-shafqat, mo'tadillik, oldini ko'ra bilish, o'zini boshqara olish;
- f) yuksak ma'naviy fazilatlar: go'zallikni qadrlay olish, minnatdorchilik, umid, hazil tuyg'usi, ma'naviyat.

Mazkur ro'yxat asosida VIA-Survey testining 240 ta savoli tuzilgan, unda inson o'zi haqidagi fikrlarni baholashi kerak. Barcha savollarga javob bergandan so'ng, natija sizning asosiy afzalligingiz va boshqa kuchli tomonlaringiz kamayish tartibida beriladi. Test o'tkazishga 15-30 daqiqa vaqt ketadi [10].

Davlat fuqarolik xizmatchisining o'ziga qanday ko'nikmalar kerakligini bilib olishi uchun, quyidagi ketma-ketlikdagi harakatlarni tavsiya qilamiz:

1) O'zini va boshqalarning fikricha juda yaxshi natijalarga erishgan bir necha vaziyatlarni yoki loyihalarni eslab, yozish.

2) Ikki ro'yxat tuzish: ish faoliyatida muvaffaqiyatli natijaga sabab bo'lgan hamda aksincha, yetishmagan «yumshoq» ko'nikmalar ro'yxatini shakllantirish.

3) Ega deb hisoblagan ko'nikmalarning darajasini Dreyfus shkalasi bo'yicha baholash.

4) Peterson va Seligman tomonidan ishlab chiqilgan kuchli tomonlarni baholash testini o'tkazish.

Ushbu o'rganishlar natijalarini umumlashtirgan holda, davlat fuqarolik xizmatchisi o'z qobiliyatlari va ko'nikmalari bo'yicha o'z-o'zini tashxislashi, shaxsiy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashi mumkin. Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilari ko'nikmalarini tashxislash va rivojlantirishda ham ushbu metodikadan foydalanish sohada kadrlar salohiyatini oshirishga, mehnat faoliyatini takomillashtirishga sabab bo'ladi.

XULOSA

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini o'rganish davlat xizmatchilarida ham «yumshoq» ko'nikmalarni rivojlantirishning dolzarbligini isbotlaydi, vaqt o'tishi bilan «yumshoq» ko'nikmalarning o'zgarib, rivojlanib borishini ifodalaydi, ularning davlat xizmatini takomillashtirishdagi muhim rolini asoslaydi. Ma'lumki, davlat xizmati davlat apparati va jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi «ko'pri» vazifasini bajaradi. Shuningdek, ular fuqarolarning xavfsiz va munosib hayot kechirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish huquq va erkinliklarini ta'minlaydi. «Davlat xizmati ijtimoiy tizimda ijtimoiy aloqalar va jamiyat hamda davlat o'rtasidagi munosabatlarning nisbiy barqarorligini ta'minlaydigan institutsional shakllanish sifatida faoliyat ko'rsatadi» [11]. Shu sababli, davlat xizmatchilari faoliyatini optimallashtirish uchun ko'nikma va malakalarni tizimli o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu jarayonda, bizning fikrimizcha, umumiy madaniy, umumiy kasbiy va tor kasbiy yo'nalishlarni hisobga olish muhimdir. Chunki modernizatsiya va integratsiya jarayonini jadallashtirish davriga muvofiq zarur «yumshoq» ko'nikmalarni rivojlantirish barcha darajadagi rahbar va xodimlar ishini optimallashtirishga va natijada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni sifatli amalga oshirishga xizmat qiladi. Har bir mamlakatda davlat xizmatini isloh qilish va inson resurslarini ko'paytirish tashqi va ichki siyosat, ijtimoiy farovonlikni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. G'oziyev E. Psixologiya. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 224 b.
2. Nurillayev B.N. Bolajak fizika o'qituvchilarining eksperimental ko'nikmalari mazmuni va tahlili. Pedagogika. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 6/2017.60-67 betlar, published year: 2017. <https://new.tdpu.uz/article/948>.
3. О'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti. 2003. (5-180-b, 5-419-b).
3. Сосницкая О. Soft skills: мягкие навыки твердого характера. Elektron manbaa: <https://www.dw.com/ru/soft-skills%DO%BC%D>.

4. Райицкая Л.К., Тихонова Е.В. Soft skills в представлении преподавателей и студентов российских университетов в контексте мирового опыта. Вестник РУДН. Серия: Психология и педагогика. DOI: 10.22363/2313-1683-2018-15-3-350-363.
5. by STUART E. DREYFUS and HUBERT L. DREYFUS. A five-stage model of the mental activities involved in directed skill acquisition. University of California, Berkeley, February, 1980. Elektron manbaa: <https://www.researchgate.net/publication/235125013>
6. Elektron manbaa: <https://www.collidu.com/presentation-dreyfus-model>.
7. Stuart E. Dreyfus. The Five-Stage Model of Adult Skill Acquisition. Bulletin of Science Technology & Society 2004 24: 177. DOI: 10.1177/0270467604264992.
8. Seligman M.E.P., Steen T.A., Park N., & Peterson, C. (2005). Positive psychology progress: Empirical validation of interventions. American Psychologist, 60(5), 410-421. <https://doi.org/10.1037/0003-066X.60.5.410>
9. Elektron manbaa: <https://www.viacharacter.org/>.
10. Комлева В.В. Престиж государственной службы в социокультурном контексте. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора социологических наук. – М., 2004. – С.39.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000